

Turkiston Muxtoriyati

17 inchi yilning fevrol inqilobi Turkistonda ham “muxtoriyat” fikrini uyg‘otg‘on va bu xususida har kim har narsa so‘yloy va yoza boshlog‘on edi. Lekin Turkiston muxtoriyati, Turkiston oftonumiyasi, so‘ylonib va yozilibgina qoloturg‘on masalalardin bir masalaga o‘xshob bormoqda edi. Chunki Kirinskiy hukumati, o‘zining har bir harakat va muomalasindan eski hukumat izi ila borg‘onlig‘ini bildirib va ko‘rsotib turo edi. Kirinskiy hukumati Turkistonga “muxtoriyat” bermakka emas, hatto Eron va Afg‘oniston hukumatlaridek mustaqil hukumatlarning istiqollari ila ham o‘ynayi boshlog‘on edi. Kirinskiyga munday masala haqinda so‘z so‘ylonilsa ul: “munday masalalar “majlis muasson”da hal qilinurg‘a tevishli” deb javob berib xalqni xoinona bir suratda oldor edi.

“Oldor edi” dedim, ori, shunday oldor edi. Chunki ul har bir masalaning xalini “majlis muasson”g‘a toshlog‘oni holda biror bahona topib, “majlis muasson”ning ochilishini hamon kechiktirar edi.

Chunki Kirinskiyi koditlar firqasi oldag‘on va uni ham o‘zlaridek ingliz oltunlariga sotg‘onlar va shuning bilan uning siyosi maslakindan chiqorib, munida yosog‘onlar edi. Inqilobdan ilgari podshohliq dumaxonada vakil bo‘lub turg‘on zamoninda eng birinchi hurriyatchi vakil bo‘lg‘oni holda inqilobdan keyin uning darhol koditlar tarafiga o‘tib xalqni Nikoloy usuli bilan idora qilo boshlog‘oni, muhorabaning eng muxolif bir kishi bo‘lg‘oni holda, inqilobdin so‘ng hukumat idorasini o‘z qo‘lig‘a olg‘och, “yinggoncha urush” shiorini oldin surmagi, uning ingliz va fronsuz oltunlariga sotilg‘onlig‘ini bildirmakdadir.

Necha asrlar “Rumonif” hukumatining idora: mustabidasinda ezilgan xalq, inqilob bo‘lub, hurriyat e’lon qiling‘och, masudona bir suratda yashamak umidi bilan umidlongonlar edi. Inqilobdin ko‘p narsa va shul jumladan, darhol dushmanlar bilan sulh bo‘lur deb kutganlar edi.

Chunki muhorabaning borishi xalqda g‘alabaga umidni uzgan va shuning uchun muhorabaning davomi vatan uchun zarardin boshqa hech bir natija bermasligiga xalqni tamom ishontirilgan. Lekin Kirinskiy xalq va vatang‘a xiyonat etib, iqtisodiy hol va xalq tilagining holaticha urushning davomiga qaror berdi. Urush olamindin zo‘ra qadar malumoti bo‘lmog‘on bilan “sig‘irga egar toqmoq” qabilindin ginirol pog‘unlari toqib harb maydoninda janglanib yura boshladi. Kirinskiy muhorabani davom qildurmog‘i ila vatang‘a zo‘r xiyonat ekanidek, burjuoziyag‘a tarafdarliq yoki olorg‘a sotilmog‘i bilan xalqni ham zo‘r jinoyat etdi. Inqilobdin so‘ng kutkaning haloqatcha har narsa qimatlanib, ushbu kungi darajaga yetdi.

Xalqda ochliq boshlondi, vabo va tifdek xastaliklar ila xalq qirila boshlodi va hamon qirilmoqda. Xalq va vatanning bunday oyonch holga tushmog‘iga sabab shubhasiz shul “muvaqqat hukumat” nomida bo‘lg‘on Kirinskiy hukumatidir.

(Oxiri bo‘lur)

Shokir Muxtoriy. “Mehnatkashlar tovushi” gazetasi.

1918 yil 11 iyun.